

O'TKIR LEYKOZ BILAN OG'RIGAN BEMORLARDA JIGAR MORFOLOGIK VA LABORATOR KO'RSATKICHLARINING FARQLANISH XUSUSIYATLARI

*Qoraqolpoq Tibbiyot instituti
Ichki kasalliklar priptidevtikasi kafedresi assistenti
Sobirova Nargiza Muxtor qizi
nsobirova124@gmail.com
Dotsent PhD **Fazilova Sharifa Mirhamidovna***

Kirish: Leykoz — bu gemopoez (qon yaratuvchi) to'qimalarning o'sma kasalliklaridan iborat geterogen guruh bo'lib, u turli xil va biologik jihatdan farqlanuvchi kichik guruhlarni o'z ichiga oladi. Dunyo bo'ylab leykoz tarqalishini o'rganish va kasallanishning turli qonuniyatlarini tahlil qilish, profilaktik choralarni ishlab chiqish hamda sog'liqni saqlash resurslarini rejalashtirishga yordam beruvchi omillarni aniqlash epidemiologik tadqiqotlarning asosiy maqsadi hisoblanadi.

Maqsad: O'tkir leykoz bilan og'rigan bemorlarda jigar faoliyatining laborator diagnostikasini baholash.

Materiallar va tadqiqot usullari: 2024–2025 yillar davomida QKVTKda o'tkir leykoz tashxisi qo'yilgan 54 nafar birlamchi bemor tekshirildi. Bemorlar kasallikning turli bosqichlarida bo'lgan. Ulardan 34 nafari ayollar (62,3%), 20 nafari erkaklar (47,7%) bo'lib, yoshi 40 dan 70 yoshgacha edi. Nazorat guruhini 40 nafar sog'lom shaxs tashkil etdi.

Usullar: Qonning umumiy tahlili, suyak iligi morfologik ko'rsatkichlari, kengaytirilgan leykoformula va trombositlar sonini hisoblash.

Natijalar: Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, o'tkir leykoz bilan og'rigan bemorlarning periferik qonida eritrotsit ko'rsatkichlari sezilarli darajada pasaygan: Gemoglobin: $64,8 \pm 6,6$ g/l, Eritrotsitlar soni: $2,4 \pm 0,08 \times 10^{12}/l$, Rang ko'rsatkichi: $0,93 \pm 0,01$, Gematokrit: $23 \pm 0,3\%$, Eritrotsitlarning o'rtacha hajmi: $78 \pm 3,3$ mkl, Eritrotsitdagi o'rtacha gemoglobin miqdori: $31,2 \pm 0,3$ pg, Eritrotsitdagi o'rtacha gemoglobin konsentratsiyasi: $87,8 \pm 10,2$ g/l.

Nazorat guruhida bu ko'rsatkichlar quyidagicha bo'lgan: Gemoglobin: $100,2 \pm 12,1$ g/l, Eritrotsitlar soni: $4,5 \pm 0,47 \times 10^{12}/l$, Rang ko'rsatkichi: $0,9 \pm 0,012$, Gematokrit: $42 \pm 2,3\%$, Eritrotsit hajmi: $86 \pm 3,0$ fl, Eritrotsitdagi gemoglobin miqdori: $28,8 \pm 1,2$ pg, Eritrotsitdagi gemoglobin konsentratsiyasi: $90 \pm 8,3$ g/l. O'tkir leykoz bilan og'rigan bemorlarda eritrotsitlarning cho'kish tezligi o'rtacha $72,8 \pm 5,6$ mm/soatga yetgan. Trombositlar soni esa $76,4 \pm 3,2 \times 10^9/l$ bo'lib, nazorat guruhida bu ko'rsatkich $126,3 \pm 26,8 \times 10^9/l$ ni tashkil etgan. Leykotsit ko'rsatkichlarida quyidagi o'zgarishlar kuzatildi: 6 bemorda leykotsitlar soni oshgan — o'rtacha

$12,8 \pm 2,5 \times 10^9/l$. Leykoformulada: Neytrofillar: $33,4 \pm 5,9\%$, Monotsitlar: $7,2 \pm 2,13\%$, Limfotsitlar: $52,8 \pm 6,3\%$. 10 bemorda leykotsitlar soni normal darajada — $7,9 \pm 1,14 \times 10^9/l$, ammo absolyut limfotsitoz aniqlangan. Nazorat guruhida leykotsitlar soni $5,8 \pm 2,31 \times 10^9/l$ bo'lgan. Neytrofillar — $39,4 \pm 4,8\%$, monotsitlar — $5,8 \pm 1,9\%$, limfotsitlar — $54,3 \pm 5,4\%$.

Xulosa: Suyak iligi morfologik ko'rsatkichlari va qon tahlillari shuni ko'rsatdiki, o'tkir leykoz bilan og'rigan bemorlarda gipoxrom, normotsitar anemiya, trombositopeniya va eritrotsitlarning cho'kish tezligining sezilarli oshishi ($72,8 \pm 5,6$ mm/soat) kuzatiladi. Leykotsit ko'rsatkichlari tahlilida 10 bemorda leykotsitlar soni oshgan va plazmatik hujayralar miqdori 10% gacha yetgan.